



## **Bilasizmi?**

### **O'qishni ko'chirish uchun arizalar qabuli davom etmoqda**

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi 393-son qaroriga 3-ILOVA "Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 15-bandiga asosan oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'qishini ko'chirish bo'yicha arizalarni topshirish va ko'rib chiqish quyidagicha amalga oshiriladi:

---

□ arizalarni oliy ta'lim muassasasi, tegishli vazirlik (idora) yoki Davlat komissiyasi tomonidan ko'rib chiqib, qaror qabul qilish — har yili 5 avgustdan 30 avgustga qadar amalga oshiriladi.

Talabalar o'qishini ko'chirish uzrli sabablarga ko'ra

□ respublikaning bir hududidan ikkinchi hududiga doimiy yashash uchun yoki turmushga chiqish munosabati bilan turmush o'rtog'i doimiy yashaydigan (pasport bo'yicha doimiy ro'yxatdan o'tgan) hududga ko'chib o'tganda;

□ turmush o'rtog'i yoki ota-onasi harbiy xizmat o'tash joyini o'zgartirganda, yoxud ota-onasi (turmush o'rtog'i) xorijdagi davlat xizmatidan qaytganda) bahorgi semestrda o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan oldin ham amalga oshirilishi mumkin.

Bunda:

□ o'qishini ko'chirish bo'yicha ariza topshirish — har yili 20 dekabrda keyingi yilning 20 yanvariga qadar;

□ o'qishini ko'chirish bo'yicha arizani ko'rib chiqib, qaror qabul qilish — har yili 25 yanvardan 15 fevralga qadar amalga oshiriladi.

**O'ktamjon Ergashev - So'x tumani adliya bo'limi bosh maslahatchisi**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-15 17:32:12